# IPAK QURTI BOQISH MAVSUMI BOSHLANDI



Pillachilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan. Shu kunlarda Qo‘shtepa tumanida 2022-yildagi chiligi hosili bo‘lgan pilla xirmonini yaratish maqsadida ipak qurti urug‘i tarqatilib, parvarishi boshlab yuborildi.

Bu borada “Aligavxarov Langar” MMTP hududiga qarashli Qorakaltak, Shodlik, Langar mahallalaridagi fermer xo‘jaliklari va ularning qurt boquvchilari peshqadamlik qilmoqdalar.

Ipak qurti urug‘larini tarqatish va parvarish qilishda mahallalardagi xotin-qizlar faollari pillachilik agranomlariga yaqindan yordam bermoqdalar.

Shuni ta’kidlash lozimki, Qo‘shtepa tumanida joriy yilda 2044 quti ipak qurti urug‘idan 116 tonna pilla yetishtirish rejalashtirilgan.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook,
2022-04-16 17:58:33